



Lirikada vazn va qofiya uyg‘unligi

(Bobur ruboilyari asosida)

Shafiqa Yarqin

professor, filologiya fanlari doktori

Hamroyeva Orzigul Jalolovna

professor, filologiya fanlari doktori

arguvon87@mail.ru

+998977776736

Annotatsiya: Poetika ilmining bilimdoni Zahiriddin Muhammad Bobur ijodiy va ilmiy merosi tadqiqi adabiyotshunoslik uchun muhim vazifalardan biridir. Bobur poetika ilmiga oid risola yaratish barobarida uning amaliy natijasini asarlarida ko‘rsatib berdi. Xususan, Bobur ruboilyarida vazn va qofiya nazariyasining amaliy tatbig‘i, badiiy ifodasi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Qofiyaning vazn bilan bog‘liq besh turi va turkiy adabiyotda qo‘llanishi an’anaga aylangan uch maxsus turning Bobur ijodida ko‘p uchrashi davr adabiy muhitini ko‘rsatuvchi muhim omil sifatida e’tiborga molik. Shu jihatdan shoirlar asarlarining tahlil va tadqiqi muhim ahamiyatga ega. Maqolada shoirning ruboilyari tahlilga tortiladi, ularning vazniy va qofiya imkoniyatlari tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: aruz, qofiya, hijo, rukn, qofiya turlari, qofiya harakatlari, bahr.

Аннотация: Изучение творческого и научного наследия Захириддина Мухаммада Бабура, знатока поэтики, является одной из важных задач литературоведения. Создавая трактат по науке о поэтике, Бабур показал в своих произведениях ее практические результаты. В частности, практическое применение и



INNOVATIVE PUBLICATION

Journal of Effective

Vol.3 №3 (2025). March

innovativepublication.uz

Learning and Sustainable Innovation



художественное выражение теории аруд и рифмы отчетливо просматриваются в рубайятах Бабура. Пять типов рифм, связанных с арудом, и три специальных типа, которые традиционно используются в тюркской литературе, значимы в творчестве Бабура как важный фактор, указывающий на литературную среду того времени. В этом отношении важен анализ и исследование творчества поэтов. В статье анализируются рубай поэта, исследуются их аруд и рифмовочные возможности.

Ключевые слова: аруз, рифмовка, хиджо, рукн, виды рифмовки, рифмовочные движения, баҳр.

Abstract: The study of the creative and scientific heritage of Zahiriddin Muhammad Babur, a connoisseur of poetics, is one of the important tasks for literary studies. While creating a treatise on the science of poetics, Babur showed its practical results in his works. In particular, the practical application and artistic expression of the theory of aruz and rhyme are clearly visible in Babur's rubaiyats. Five types of rhyme related to weight and three special types, which are traditionally used in Turkish literature, are significant in Babur's work as an important factor indicating the literary environment of the time. In this respect, the analysis and research of poets' works is important. In the article, the rubai of the poet is analyzed, their aruz and rhyme possibilities are studied.

Key words: aruz, rhyme, hijo, rukn, types of rhyme, rhyme movements, bahr.

Mumtoz lirik janrlar poetikasining tahlili shoirlarning mazmun va shaklni bir butun holda taqdim etganliklarini va bu qoidaga qat'iy rioya qilganliklarini ko'rsatadi. Xususan, poetika ilmining bilimdoni Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasida ayni xususiyat: vazn, qofiya va badiiyatning yaxlit holda berilishi bilan bog'liq amaliy jarayon mukammallikka ega. Ruboiy garchi kichik lirik janr bo'lsa-da, uning yaratilishi boshqa janrlarga nisbatan



murakkab. Buning asosiy sabablaridan biri esa ma'lum qofiya va vaznga qat'iy riosa qilinishidir.

Ma'lumki, ruboiy hazaj bahrining ikki: axrab va axram shajarasining 24 vaznida yoziladi. Bobur ruboilyari orasida axrab shajarasida yozilgan ruboilyar soni axram shajarasida yozilgan ruboylarga nisbatan ko‘p. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Bobur ruboilyari vaznga mutanosib ravishda qofiya tizimiga to‘liq va mukammal riosa qilingan lirkjanr sifatida adabiyotshunoslikda alohida e’tirof etiladi. Adabiyotshunoslikda Boburning yetuk ruboiynavis sifatida e’tirof etilishi ruboilyar sonining ko‘pligi bilan emas, poetik: vazn, qofiya, badiiyat jihatidan mukammalligiga qarab belgilangan. Shoир ruboilyari vazn imkoniyatlarini o‘zida to‘la aks etira olgan. Shu bilan birgalikda vaznga mos ravishda mukammal – asl qofiya shakl va mazumn butunligini ta’minlab turibdi.

Ma'lumki, qofiya misra oxiridagi ohangdosh so‘z bo‘lib, shoир maqsad va uslubini o‘zida aks ettiruvchi asosiy shakliy birlikdir. Qofiyashunoslar qofiyaning tuzilishiga ko‘r uch: asliy, shoygon va g‘ayri ma‘muliq qofiya turini farqlaydilar. Unga ko‘ra asliy qofiya qofiya harf va harakatlarining to‘la mosligi, istisno holat va qofiya ayblarining mavjud emasligi, ohangdoshlik asoslar o‘rtasida yuzaga kelishiga asoslanadi. Bobur ruboilyarida ayni qonuniyat asosidagi asliy qofiyalar ishtiroki bosh mezon qilib olingan.

Yo qahr-u g‘azab birla meni ***tufroq*** qil,

Yo bahri inoyatingda ***mustag‘roq*** qil.

Yo rab, sengadur yuzum qaro, xoh ***oq*** qil,

Har nav‘i sening rizong erur ***andoq*** qil.

Ruboiy *tufroq* – *mustag‘roq* – *oq* – *andoq* qofiyadosh so‘zlari asosida shakllantirilgan bo‘lib, “qof” raviy sifatida asoslar ohangdoshligini ta’minlab turibdi. Qofiyadosh so‘zlar tarkibidagi ridfning takrori ohangni kuchaytirish vazifasini va qofiya harflarining ishtirokiga ko‘ra murdaf qofiya turini yuzaga keltirgan. E’tibor qilinsa, qofiyadosh so‘zlardagi raviy sokin holatda, demakki, bunday qofiyadosh so‘zlar raviyining



Learning and Sustainable Innovation



ishtirokiga ko‘ra muqayyad qofiya turini shakllantirgan. Qofiya harflarining va qofiya qismlarining ishtirokiga ko‘ra turlari bir-birini taqozo qiladigan tur sifatida vaznga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi. *Tufroq – mustag‘roq – oq – andoq* qofiyadosh so‘zlari ridf (“*alif*” – o harfi) ishtirok etgani uchun murdaf, juzvlarning ishtiroki (qofiya qismlarining ishtiroki)ga ko‘ra mutarodif qofiya turini shakllantirgan. Bu qofiyaning o‘ziga xos xususiyati shundaki, qofiya qismlari mutaharrik harfdan so‘ng ikki sokin harfning kelishiga asoslanadi. Ahmad Taroziy “Funun ul-balogs‘a” asarida mutarodif qofiya turi sababi mutavassit (~)ning ishtiroki asosida shakllanishini ta’kidlaydi.

Tuf -roq - - - ~

Mus tag‘ -roq - - - - ~

Oq - ~

Andoq - - ~

Tabiiyki, qofiyadosh so‘zning o‘ta cho‘ziq hijo bilan tugallanishi vaznga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Yo qahr-u g‘azab birla meni *tufroq* qil, - a

- - - V / V - - V / V - - - / -

Yo bahri inoyatingda *mustag‘roq* qil. - a

- - V / V - - V / V - - - / -

Yo rab, sengadur yuzum qaro, xoh *oq* qil, - a

- - - V / V - V - / V - - - / -

Har nav‘i sening rizong erur *andoq* qil. - a

- - - V / V - V - / V - - - / -

Ruboiyning birinchi va ikkinchi misralari hazaji musammani axrabi makfufi solimi abtar, uchinchi va to‘rtinchi misralari hazaji musammani axrabi maqbuzi solimi abtar vaznida yozilgan. Ruboiyda “*qil*” so‘zi radif sifatida ishlatilgani bois qofiyaning mutarodif shakli misraning uchinchi rukniga ta’sir ko‘rsatgan. Ya’ni uchinchi rukn so‘nggining



cho‘ziq hijo shaklida kelishi axrab va axram shajarasidagi vaznlarning (uchinchi rukn)solim va axram vaznida kelishini talab qiladi. Ruboiy qofiyadosh so‘z bilan tugasa-da, raviydan keyingi qofiya harflarning ishtiroki ham uchinchi ruknga ta’sir ko‘rsatishini kuzatish mumkin. Bunday holatda ham qofiyadosh so‘zlardagi ohangdoshlikni ta’minlab turgan asosdagi so‘nggi hijo o‘ta cho‘ziq (sababi mutavassit) hijo bo‘lgani sababidan uchinchi rukn axrab va axram shajarasining solim va axram vaznnini talab qiladi.

Eykim, manga mujda berding ul ***jonondin***, - a

- - V / V - V - / V - - - / -

Qilding meni ozod g‘ami ***hijrondin***. - a

- - V / V - - V / V - - - / -

Bu mujdani ne nav’ sifat qilg‘aymen, - b

- - V / V - - V / V - - - / -

Go‘yoki xabar berding o‘lukka ***jondin***. - a

- - V / V - - V / V - - - / -

Jonondin – hijrondin – jondin so‘zlari qofiyadosh so‘z sifatida yuqorida tahlilga tortilgan ruboiy bilan ayni xarakterga ega. Ya’ni bu qofiyadosh so‘zlar mutarodifi murdaf qofiya turini hosil qilgan. Biroq bu qofiya turi raviy mutaharrik bo‘lgani bois ham raviyning ishtirokiga ko‘ra mutlaq qofiya turini shakllantirgan.

Yuz hamd angakim, hamdin aning ahli ***maqol***,

- - V / V - - V / V - - V / V ~

Yuz yil desalar, tugatmagi amri ***mahol***.

- - V / V - V - / V - - V / V ~

Vasfida xirad ojiz erur, notiqa ***lol***.

- - V / V - - V / V - - V / V ~

Ne nav’ sifat qilay oni jalla ***jalol***.

- - V / V - V - / V - - V / V ~



Learning and Sustainable Innovation



Ruboiyning birinchi va uchinchi misrasi hazaji musammani axrabi makfufi axtam, ikkinchi va to‘rtinchi misrasi hazaji musammani axrabi maqbuzi makfufi axtam vaznida yozilgan bo‘lib, taqti e’tiboriga ko‘ra mutavoziy qofiya turi qo‘llanilgan. Ruboiy vaznlari orasida azall va axtam ruknlarining so‘nggi o‘ta cho‘ziq hijodan tashkil topadi. Demakki, qofiyaning taqti’ e’tiboriga ko‘ra turlari orasidan mutarodif (~), mutavoziy (V ~), mutarojih (V V ~), mutazoyid (VVV~) turlari ruboiyning azall va axtam vaznini talab qiladi. Qofiyaning uch: mutavoziy (V ~), mutarojih (V V ~), mutazoyid (VVV~) turlari turkiy adabiyotda keng qo‘llangan. Ahmad Taroziy bu uch qofiya turini forsning ixtirosi sifatida keltiradi.

Bobur ruboilari orasida mutarodif qofiya asosidagi axrab va axram shajarasining azall vaznida yozilgan ruboilalar nisbatan ko‘p.

Keldim sanga yuz umid bila, ey **moh**, - a

- - V / V - V - / V - - - / ~

Lekin yozdim yuzingni ko‘rmay yuz **oh**, - a

- - / - V - / V - - - / ~

Hamsuhbat-u hamrohni netay bu yo‘lda, - b

- - V / V - - V / V - - - / -

Darding manga hamsuhbat-u ishqing hamroh. - a

- - V / V - - V / V - - - / ~

Ruboiy uch xil vaznda yozilgan bo‘lsa-da, qofiyadosh so‘zlarning ishtirokiga ko‘ra barcha misralarning so‘ngi azall ruknidagi ekanligini kuzatish mumkin.

Bobur ruboilari orasida muraddaf - radifli ruboilalar juda katta salmoqga ega. Radif mohiyatni, ijodkor maqsadini anglatuvchi asosiy vosita bo‘lgani bois Bobur radifning yig‘iq va yoyiq shaklidan unumli foydalangan. Natijada ohangdoshlik mazmun bilan mutanosib holatda yaxlitlikni yuzaga keltirgan.

Ishqingda ko‘nglum **xarobdur**, men ne qilay?



Hajringda ko‘zum ***purobdur, men ne qilay?***

Jismim aro pech-u ***tobdur, men ne qilay?***

Jonimda ko‘p ***iztirobdur, men ne qilay?***

Yoki

Ey yor, sening vaslingga ***yetmak mushkil,***

Farxunda hadisingni ***eshitmak mushkil.***

Ishqingni dog‘i bartaraf ***etmak mushkil.***

Boshni olibon har sari ***ketmak mushkil.***

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, Bobur ijodida qofiyaning mutakovis, mutarokib, mutavotir kabi turlari kam uchraydi. Ruboiy vaznlari orasida abtar va ajabb vaznidagi ruboiyilar salmoqli hajmga ega bo‘lsa-da, ularning ko‘pi radif va qofiyadan keyingi harflarning ishtirokiga qarab belgilangan. Ruboiyilar orasida qofiyaning muqayyad shaklida tugagani miqdoran kam.

Ey bodi sabo, ayla Xurosong‘a ***guzar, - a***

- - V / V - - V / V -- V / V -

Medin degil ul yori parishong‘a ***xabar. - a***

- - V / V - - V / V -- V / V -

Necha safar o‘z ko‘nglung uchun qilg‘aysen, - b

- - V / V - - V / V -- - / -

Emdi bizing uchun ayla bu yong‘a ***safar. - a***

- - V / V - - - / V -- V / V -

Uch xil vaznda yozilgan ushbu ruboiydagi qofiyadosh so‘zlar *guzar, xabar, safar* so‘zları qofiyaning taqtı’ e’tiboriga ko‘ra mutadorik turini hosil qilish barobarida axrab va axram shajarasining ajabb vaznini talab qilgan.



Bobur ruboiliali orasida Navoiy ta'kidlaganidek, "qofiyasida aybg'inasi bor" ruboililar ham uchrab turadi. Qofiyaning mukammalligi raviyning ishtiroki va shu bilan birgalikda uning asos tarkibida kelishi va bir xil harfdan iborat bo'lishini talab qiladi.

Qayg'ungni cheka-cheka ***qaribdur*** Bobur,

Rahm aylaki, o'zidin ***boribdur*** Bobur.

Noranj yubordi sangakim, bilgaysen,

Ya'niki bu nav' ***sarg'aribdur*** Bobur.

Ruboiyda *qaribdur – boribdur – sarg'aribdur* so'zlari qofiyadosh so'zlar sifatida ohangdoshlikni ta'minlab bergan. *Qaribdur* so'zining asosi *qarimoq*, *boribdur* so'zining asosi esa *bormoq*, *sarg'aribdur* so'zining asosi esa *sarg'armoq* bo'lib, *qari – bor – sarg'ar* so'zlari o'zaro qofiyadosh bo'la olmaydi. Shu sabab bilan raviy sifatida "bo" - b undoshi ohangdoshlikni ta'minlab turibdi. Demakki, raviy asos tarkibida emas, qo'shimcha tarkibida kelgan. Bu esa qofiyadagi nuqson sifatida baholanadi.

Ey yor, jafo rasmi ***chiqormoq*** ne edi?

Yo mehr giyohini ***qo'pormoq*** ne edi.

Bir mehr yana lutf, yana javr nedur,

Bir bording-u kelding, yana ***bormoq*** ne edi?

Yuqoridagi ruboiyda ham bu holat ko'zga tashlanadi. Ya'ni *chiqarmoq* so'zi asosan (asos jihatidan) *qo'pormoq* va *bormoq* so'zlari bilan qofiyadosh bo'la olmaydi. -Ar shakligina *chiqormoq* so'zini ular bilan qofiyadoshlik vazifasiga birlashtirishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ruboiy garchi kichik lirik janr bo'lsa-da, mazmunan keng va shaklan qat'iy qoidalar asosida yaratiluvchi lirik janrdir. Bobur ruboililarida bu mukammallik yaqqol ko'zga tashlanadi. Bobur aruzga oid risola muallifi sifatida vaznning mukammal va saktasiz kelishiga qat'iy amal qilgan. Bu holat ruboilarning qofiya tizimida ham ko'zga tashlanadi. Ikki yuzdan ortiq ruboilarning



deyarli barchasi mukammal qofiyaga ega. Bobur radif, hojib va qofiyaning badiiy ahamiyatini to‘g‘ri anglagan holda bu tamoyilni ijodining bosh mezoniga aylantirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bobur she’rlari. O‘zR FA ShI Asosiy fondi. Inv. 8814. 1914.
2. З.М.Бобур. Девон. – Тошкент: ЎзР ФА, 1958. – 180 б.
3. Бобур. Девон. З жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1965. – 234 б.
4. З.М.Бобур Махрами асрор топмадим. Париж девони нусхаси: Шеърлар. (Нашрга тайёрловчи С.Ҳасан) – Тошкент: Ёзувчи, 1993. – 380 б.
5. З.М.Бобур Девон. (Нашрга тайёрловчи А.Абдуғафуров) – Тошкент: Фан, 1994. – 196 б.
6. Девони Заҳиридин Мухаммад Бобур. (Нашрга тайёрловчи Шафиқа Ёрқин қизи) – Кобул, 1983. – 232 б.
7. Бобур Девони: Кобул нашрига қўшимча (такмила). (Нашрга тайёрловчи Шафиқа Ёрқин қизи) – Тошкент: Шарқ, 2004. – 84 б
8. Jalolovna, H. O. (2024). The Effect Of The Original Rhyme On The Content (Based on Babur's Rubaiyat). American Journal of Advanced Scientific Research, 1(1), 141-142.
9. Ҳожиаҳмедов А. Ўзбек арузи луғати. -Т: Шарқ, 1998. 222 б.
10. Hamroyeva O.J. Mumtoz qofiyaning nazariy asoslari. Qo‘llanma. -T.: BOOKPRINT, 2022. 200 b.
11. Hamroyeva, O. (2024). The Emergence of The Science of Rhyme. SPAST Reports, 1(1).